



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
__-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tasviriy san'at fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 5-sinflar uchun
III chorak

DARS
ISHLANMALARARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan tasviriy san’at fanidan III chorak
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
III chorak				
1.	Grizayl	1		
2.	Tasvirlarda ranglar jilosi	1		
3.	Qarama-qarshi ranglardan foydalanib, kompozitsiya ishlash	1		
4.	Tasviriy san’atda qog‘oz plastikasi	1		
5.	Badiiy shrift	1		
6.	Qo‘lni uzmasdan chizish texnikasi	1		
7.	Badiiy bezakli sovg‘a qutichasini ishlash	1		
8.	Animalistik janr	1		
9.	Nazorat ishi – 4	1		
10.	Navro‘z bayrami mavzusida kompozitsiya ishlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Grizayl.

Ta’limiy maqsad: tasviriy san’atning ifodaviy vositalari haqida umumiy tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga ahloqiy tarbiya berish va tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, tasviriy san’atning ifodaviy vositalari sifatida rangtasvirda rang, surtma, chiziq, rang dog‘lari, rangdor va yorug‘lik kontrastlari haqida tushuncha berish, grafikada chiziq, shtrix, kontur, tus, oq-qora dog‘lardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: chizish ko‘nikmava malakasini rivojlantirish, o‘quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlari, badiiy - estetik didlarini o‘stirish, tasviriy malakalarini va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

Mashg‘ulot metodi: tushuntirish, savol-javob, suhbat, amaliy, yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Jihozi: darslik, tasviriy san’at mavzuga doir ko‘rgazmalar, rasmlar, qalamlar, proyektor, tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

o‘qib-o‘rganish uchun fan to‘garaklariga qatnashish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

mahallada tashkil etilgan hasharlarda, shanbaliklarda faol ishtirok etish.

I. Tashkiliy qism: dars uchun yetarli miqdorda zarur ashyolar hozirlanadi.


Doskaga dars mavzusi va tegishli ma’lumotlar yozib qo‘yiladi.

II. Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

Grizayl - fransuzcha “grisaille” so‘zidan olingan bo‘lib, “gris - kulrang” began ma’noni anglatadi. Tasvirning bir rangda ishlanishiga, birgina tanlangan rangning ochdan to‘q rang bo‘lib tuslanishiga grizayl deyiladi. Grizayl texnikasida, asosan, kulrang, ko‘k, pushti, jigarrang yoki qora ranglardan biri tanlanadi. Ranglarning tabiiyligini tasvirda to‘g‘ri bajarish ancha qiyin ish hisoblanadi. Manzara yoki naturmort ishlashda och-to‘qlik darajalarini farqlashga, narsa va buyumlarning yorug‘-soya va rang nisbatlarini ham ochib, aniq ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Grizayl texnikasida turli ranglarda manzara yoki naturmort ishlash uchun tayyorgarlik bosqichi bor bo‘lib, unda mo‘yqalamni ishlatish yo‘llari va akvarel bo‘yoqlarining xususiyatlarini o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Grizayl texnikasi tasvirdagi narsalarning yorug‘lik tushib turgan qismi, soyasi, yarqiragan qismi, yarim soyasi, refleksi, shaxsiy hamda tushuvchi soylarini chizishda va uni kuzatuvchi aniq ko‘ra olishiga yordam beradi. Bu texnika bilan bir nechta tasvir ishlashni o‘rgangandan

soʻng, rangli tasvirni ishlashga oʻtish ancha osonlashadi. Hozirgi kunda zamonaviy rangtasvir kompozitsiyalarida grizayl texnikasida aniq belgilangan (kulrang, koʻk, pushti, jigarrang yoki qora) bir rangda emas, balki barcha ranglarning tuslanishi asosida tasvir ishlash mumkin.



Grizayl texnikasida ishlash uchun koʻmir, moy, tush, akvarel, guash boʻyoqlaridan foydalanish mumkin.

Monoxrom soʻzi rangtasvirda faqat bitta rangdan yoki bitta rangning tuslaridan foydalanishni anglatadi. Ishni boshlashdan oldin, rangning asosiy xususiyatlarini aniqlab olamiz. Har bir rang asosiy uchta xususiyatga ega: Rang tusi- bu spektral ranglar qizil, sariq, sariq-qizil ranglardan biriga rangning mos kelishi hisoblanadi. Rang tusini aniqlash uchun uni rang doirasidagi ranglar bilan taqqoslash va uning qaysi qismi (sariq-toʻq sariq, binafsharang va boshqalar)ga tegishli ekanligini aniqlash kerak. Toʻyinganlik (och-toʻqlik) - bu intensivlikni, shuningdek, rang tusining tozaligi, uning ravshanligi, boshqa tuslarning aralashmalaridan xoli ekanligini ifodalovchi sifat. Yorqinlik- bu yorqinroq-xiraroq qoidasiga koʻra bitta rang tuslarining qiyosiy farqini anglatadi.

III. Mustahkamlash:

1. Grizayl texnikasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Grizayl texnikasida tasvirlar qanday ranglarda bajariladi?

IV. Baholash: toʻgarak aʼzolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, mashgʻulotda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantirish.

V. Uyga vazifa: Bir tusdagi rang bilan manzara ishlab, yakunlab keling.

OʻIBDOʻ: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Tasvirlarda ranglar jilosi.

Ta'limiy maqsad: tasviriy san'atning ifodaviy vositalari haqida umumiy tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga ahloqiy tarbiya berish va tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, tasviriy san'atning ifodaviy vositalari sifatida rangtasvirda rang, surtma, chiziq, rang dog'lari, rangdor va yorug'lik kontrastlari haqida tushuncha berish, grafikada chiziq, shtrix, kontur, tus, oq-qora dog'lardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: chizish ko'nikmava malakasini rivojlantirish, o'quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlari, badiiy - estetik didlarini o'stirish, tasviriy malakalarini va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

Mashg'ulot metodi: tushuntirish, savol-javob, suhbat, amaliy, yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Jihozi: darslik, tasviriy san'at mavzuga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, proyektor, tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

yurish-turishda milliy va madaniy me'yorlarga amal qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

shaxsiy, iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritishni bilish.

I. Tashkiliy qism: dars uchun yetarli miqdorda zarur ashyolar hozirlanadi.

Doskaga dars mavzusi va tegishli ma'lumotlar yozib qo'yiladi.

II. Darsning borishi:


№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

Ranglar tasvir yaratishda eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Ranglar yaratilgan asarning mazmuni va g'oyasini tola ochib beradi. Bu qiziq! Kunduzgi tabiiy yorug'likda inson ko'zi 180 da yaqin rang tuslarini va 10 da yaqin to'yinganlik darajasini ajratishga qodir ekan. Umuman olganda, ravshan ko'z 360 da yaqin rang tuslarini farqlash qobiliyatiga ega. Ranglar tabiatdagi barcha narsalarning o'zidan chiqargan va qaytargan nurlanishi asosida hosil bo'ladi. Rangni birinchi bo'lib inglizfizigi Isaak Nyuton ilmiy jihatdan asoslab bergan. U turli xil tajribalar o'tkazish orqali yorug'lik nuri tekislikka tushirilganda qizil, sariq, zangori ranglar va bu ranglar orasida yana bir nechta rang aralashmasi hosil bo'lishini isbotlab bergan. Mana shu tajribalar asosida - qizil, sariq, zangori ranglar tabiatdagi asosiy ranglar deb qabul qilingan,;Boshqa barcha ranglar shu uch rang qo'shilishidan hosil bo'iadi. Hozirga kelib, bir necha yuzdan ortiq rang tusi aniqlangan.

Ranglar ko‘rinishiga ko‘ra iliq va sovuq ranglarga bolinadi. Iliq ranglar tabiatga iliqlik beruvchi, ya‘ni quyosh taftini, alanga nafasini, qizigan jism haroratini beruvchi qizil, zarg‘aldoq, sariq, pushti, jigarrang, tillarang kabilardan iborat. Sovuq ranglar - qor, muz, suv, osmon rangini ifodalovchi, ya‘ni bu ranglarga zangor rangni aralashtirishdan hosil qilinadigan ko‘k, yashil, binafsharang, havorang, zangori kabi ranglardan tashkil topadi.

Ranglar tusiga qarab xromatik va axromatik rang turlariga bolinadi. Xromatik so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “rangli” degan ma‘noni anglatadi, axromatik so‘zi esa “rangsiz” degan tushunchani bildiradi. Demak, oq va qora rangdan boshqa biron tusga ega bo‘lgan hamma ranglar xromatik ranglardir. Oq, qora va shu ikki rangdan hosil bo‘luvchi ranglarning hammasi axromatik ranglar turiga kiradi. Tasvir yoki asardagi narsalarning hamma ranglaridan ustunlik qiladigan umumiy yorug‘lik va rang birikmalari kolorit deyiladi. Agar tasvirda qizil rang ustunlik qilsa, qizil koloritli deb yuritiladi.

Sof holatdagi xromatik ranglar to‘yingan ranglar deyiladi. Tarkibida oq va kulrang aralashgan ranglar kam to‘yingan (yoki to‘yinmagan) ranglarga kiradi. Ranglarda qarama-qarshi ranglar atamasi ishlatiladi. Bunday ranglar alohida bir o‘zi ishlatilgandan ko‘ra yonma-yon qo‘yilganda tuslanishi aniqroq va kuchliroq ko‘rinadi. Rassomlar ranglarning xususiyatlaridan unumli foydalanadilar. Asar kompozitsiyasini ajratib ko‘rsatib berishda, mavzu yoki ton orasidagi munosabatni yorqinroq ko‘rsatishda qarama-qarshi ranglarni ishlatadilar. Bu ranglar bir-birini to‘ldiruvchi ranglar hisoblanadi. Agar gulzor tasviri faqat qizil rang bilan ishlansa, u faqat qizil gulzor bo‘lib qolaveradi. Biroq unga barg va o‘t-o‘lanlar chizib, yashil rang qo‘shib tasvirlansa, gullarning rangi yorqin, aniq va rang jihatidan kuchliroq ko‘rinadi.



III. Mustahkamlash:

1. Rangning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Rang tusi, och-to‘qligi va to‘yinganligi haqida nimalarni bilib oldingiz?

IV. Baholash: to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, mashg‘ulotda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirish.

V. Uyga vazifa: Qarama-qarshi ranglardan foydalanib, manzara kompozitsiyasini yakunlang.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

22 listdan iborat tasviriy san‘at fanidan 5-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**